

**TOSHKENT SHAHAR XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

“Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim” kafedrası

**«Bolalarning so`zlashuv
nutqini rivojlantirishda didaktik
o`yinlarning roli» mavzudagi**

MALAKA ISHI

Bajardi:

Uchtepa tumani 550- maktabgacha
ta`lim muassasasi tarbiyachisi
V.Umarova

Kurs rahbari:

L.Mirjalolova

TOSHKENT 2015 YIL, YANVAR

Reja:

1. Kirish.
2. Didaktik o'yinlarning mohiyati va pedagogik ahamiyati
3. Didaktik o'yinning mazmuni va turlari.
4. Didaktik o'yinlarga rahbarlik.
5. Didaktik o'yinni amalga oshirishda g'oyaviylik prinsipi.
7. Bolalar bilan o'tkaziladigan so'zli didaktik o'yinlar.
8. Xulosa.

Kirish

Bugungi kunda umuman o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi ekanligi barchamizga ma'lum. Shu sababli, didaktik o'yinlar maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya sifatida keng qo'llanilmoqda.

Bolalar o'yinining tartibli, davomli, uyushqoqli va aniq maqsadga qaratilgan holda tashkil etilishi, o'tkazilishi va muayyan natija bilan yakunlanishi tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalarda tashkilotchilik va tashabbuskorlik sifatlarini tarbiyalaydi, boshlangan ishini oxiriga yetkazish ko'nikmalarini paydo qiladi, ularning irodali bo'lib o'sishlariga yordam beradi: ruhiy, aqliy rivojlantiradi. V.A.Suxomlinskiy ta'biri bilan aytganda; «o'yinda bolalar oldida olam ochiladi: shaxsning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'ladi».

Psixologiya tarixida bola faolligining bunday turiga ko'plab tushunchalar berilgan. Psixologlarning bir guruxi, o'yin bu iste'dodning instinktiv rivojlanishi, kelgusi jiddiy funksiyalarning anglanmagan mashg'ulotlari deb xisoblasa, boshqalari ni xursandchilikka yetish bilan bog'lasa, uchinchi bu qizg'inlikni tushirish usli deyishsa, to'rtinchilari o'yin paytida olingan ma'lumotlarni tashlab yuborish jarayoni kechikadi deb xisoblashadi. Bularning barchasi xaqiqat. O'yin-bu bolaning narsalar olami va odamlar munosabatini anglash negizida yotgan narsalar faoliyatining o'zgacha turi ekanligi xam xaqiqat. Agarda ikki va undan kattaroq yoshdagi bola

o'yinni sevmasa, o'ynay olmasa-bu kichkintoy rivojlanishida nuqson mavjudligining ko'rsatkichidir. Bolaning kasalmand xolati yoki atrofdagi odamlar bilan muloqoti nochorligining belgisidir. Psixologlar 5-6 yoshdagi bolalar bilan quyidagi tajribani o'tkazdilar: mutlaqo bo'sh xonalarga o'yinga o'rgatilgan va o'rgatilmagan bolalarni jolashtirdilar. Shundan so'ng ulardan o'ynashlarini so'rab, o'zlari yashirin kuzatuv yuritdilar. Aniqlanishicha, o'rgatilmagan bolalar bo'sh xonada bekor yurishadi yoki umuman xarakat qilishmaydi. O'yin o'ynashni biluvchilar esa o'z navbatida nafaqat narsalarning, xatto o'yinchoqlarning umuman yo'qligiga xam qaramay, ajoyib o'ynar edi: yolg'ondakam telefon orqali suxbatlashar, kasha qaynatishar, toshoyna oldida o'zlariga oro berishar, o'zlaricha samolyot, mashina xaydashar va hokazo. Demak, biz bolalarni xar xil o'yinlar o'ynashga o'rgatishimiz lozim. O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lganligi tufayli, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajagidagi ukuv, mexnat faoliyati, kishilarga munosabatining kay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin doimo xaqiqiy xayotni aks ettiradi. Kelgusi o'quv faoliyatiga ruxan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o'yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini xamda dunyoqarashini shakllantirishga, o'stirishga xizmat qiladigan vositadir.

Didaktik o'yinlarning mohiyati va pedagogik ahamiyati

Didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi. Didaktik o'yin-bu-maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Didaktik o'yinni amalga oshirishda har doim g'oyaviylik prinsipiga asoslanish kerak. Didaktik o'yin tarbiyaning vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o'yinlar bolalarni birgalikda o'ynab, o'z manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir-biriga ko'maklashish va o'rtog'ining muvoffaqiyatidan xursand bo'lishi

kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O'yinlar shaxsning sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy hislatlari shakllanishiga imkon beradi. Loto, domino kabi ko'pgina o'yinlardan (bolalarning o'zlashtirishiga qarab) mustaqil ravishda foydalaniladi va bu o'yinlar tashkilotchilik qobiliyatini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun "Rangiga qarab top", "Shakliga qarab top", "Mazasiga qarab top" kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun "Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi", "Dehqonlar nimalarni yetishtirishadi", "Kim ko'proq narsaning nomini ayta oladi" va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin.

Didaktik o'yinlar bolalarni tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar.

Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinning muhim tomoni—uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi. Masalan, "Xaltachada nima bor?" yoki "Kim qanday qichqiradi?" va shunga o'xshashlarda bir didaktik o'yinda o'yin mazmuni, g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat yo'nalishini yoki o'yinning borishini belgilab beradi, bolalarning

hulqini, o‘zaro bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini boshqarib, kerak tomonga yo‘naltirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o‘lchovdir.

Didaktik o‘yinda amal qilinadigan qoidalar o‘yin harakatlarining to‘g‘ri noto‘g‘riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi Bolalarning biror bir bolaga nisbatan “U o‘yin qoidasini buzib o‘ynayapti” deyishlarining o‘zi ularning o‘yin qoidalariga qandaydir o‘zgartirib bo‘lmaydigan qonundek munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatadi. Bolalarning o‘yin qoidalarini o‘rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o‘yin jarayonida o‘zo‘zini, o‘zaro bir-birlarini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. O‘yinning natijasini ikki nuqtai nazardan:bolalar va tarbiyachi nuqtai nazaridan baholash lozim.

Agar o‘yin natijasini bolalar nuqtai nazaridan baholaganda, unda bu o‘yindan bolalar qanday ma'naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarnibajarish bolalardan ma'lum darajada zo‘r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi. Bolalar fahm-farosatlari, topog‘onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bular hammasi bolalarning o‘z kuchiga ishonchini oshiradi, qalbini xursandchilik hissi bilan to‘ldiradi, ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. Didaktik o‘yinning natijasini muhokama qilganda tarbiyachi quyidagilarga e'tibor berishi lozim: qo‘yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko‘zlangan nuqtai nazardan ma'lum natijalarga erishildimi yoki yo‘qmi. Yuqorida keltirilgan ikki vazifa ham yaxshi bajarilsa, ya'ni bir tomondan, bolalarda qiziqish uyg‘ota olsa va ular faoliyatini amalga oshirishga intilsalar, ikkinchi tomondan, qo‘yilgan hamma maqsad, vazifaga erishilsa, bunday o‘yin yaxshi natija berdi, deb hisoblash mumkin.

O‘yin qatnashchilarini rag‘batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun ularga yetakchi rolni berish, ba'zan esa shu o‘yinda foydalanilgan qo‘g‘irchoqni o‘ynashga berish, ammo bolalar bunday mukofatlarni olaman deb har qanday yo‘l bilan bu ishga intilishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. O‘yin harakatlari bolalar tomonidan bajariladi. O‘yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarning joyini almashtirish,yig‘ishtirish,ularni rangiga,katta-kichikligiga,shakliga qarab bir-

birlaridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hokozolarda namoyon bo'ladi. Katta bolalarning o'yin harakatlari esa murakkaroqdir: bu o'yin harakatlari esa murakkabroqdir: bu o'yin harakatlari bir guruhbolalari harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishini, harakatlarning izchillik va navbati bilan amalga oshirilishini talab etadi. O'yin natijasi didaktik o'yinning muayyan natijasi bo'ladi, natija esa o'yinning finali hisoblanadi. Masalan, topishmoqlarni topish, berilgan o'yin topshiriqlarni bajarish, fahm-farosatini namoyish qilish kabilar o'yin natijasi bo'lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar.

Tarbiya uchun o'yin natijasi doimo bolalarning bilim egallashida, aqliy faoliyatida, o'zaro munosabatlarida erishgan yutuqlarining ko'rsatkichi hisoblanadi. O'yin mazmuni, g'oyasi, harakatlari va qoidalari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lib, hatto ulardan birontasi bo'lmasa ham o'yinni o'tkazib bo'lmaydi. Didaktik o'yinning o'yin faoliyati sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari o'yin tarzida bo'ladi. Tarbiyachi o'yin qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo'ladi. Bolalar ko'pincha o'yin mazmuni bilan belgilanadigan va o'yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar. Masalan, "Magazin" o'yinida bilish mazmuni shundan iboratki, xaridor bolalar o'zlari sotib oladigan narsalarining belgilarini aytishlari, sotuvchi bolalar esa talab qilingan narsaning nimaligini xaridor aytgan belgilar bo'yicha bilib olishlari kerak. O'yin kuzatuvchanlikni mashq qilish, nutqni ravon qilish uchun xizmat qiladi. O'yin harakatlari kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko'rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. O'yin qoidalari xaridorning oladigan narsasini tanlab olishi, sotuvchiga hushmuomala bo'lishi, oladigan buyumni tasvirlabberishi, uni har tomonlama ko'rib chiqish va uni boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytishi va pul to'lashidan: sotuvchilarning vazifasi esa xaridorlar gapirayotganda ularni zo'r e'tibor bilan tinglash, so'zlarini bo'lmaslik, so'ragan buyumlarini olib, qog'ozga o'rab berishdan iborat bo'ladi. Didaktik o'yin amaliy faoliyat bo'lib, unda bolalar mashg'ulotlarda

olgan bilimlaridan foydalanadilar. Bu jihatdan didaktik o‘yinning ahamiyati shundan iboratki, u olingan bilimlarni turlicha qo‘llanish uchun, aqliy faoliyatni kuchaytirish uchun hayotiy sharoit yaratadi. Bunday bolalar yo‘l qo‘yilgan xatolar va ular nimada qiynalayotganligi ma'lum bo‘ladi. Tarbiyachi bu xatolarni tuzatish va qiyinchiliklarini yengishda bolalarga yordam beradi. Ko‘pincha didaktik o‘yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o‘z bilimlarini yangi sharoitda ishlata olishga o‘rgatadi yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini namoyon qilishni talab etadi. Masalan, “Ajoyib xaltacha” o‘yinida bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan o‘yinchoqlarni o‘ynaydilar, lekin bu o‘yinda bolalar zimmasiga o‘yinchoqni tasvirlab berish vazifasi yuklanadi, buning uchun esa bola o‘yinchoqni boshdan oyoq yaxshilab ko‘zdan kechirishi va uning o‘ziga xos belgilarini eslab qolishi kerak bo‘ladi.

Didaktik o‘yinning mazmuni va turlari

Didaktik o‘yin jarayonida turli-tuman aqliy jarayonlar faollashadi va ixtiyoriy tus oladi. O‘yin g‘oyasini tushunish va unga amal qilish, o‘yin harakatlari va o‘yin qoidalarini o‘zlashtirish uchun tarbiyachining gaplarini yaxshilab tinglash va tushunib olish zarur. O‘yindagi vazifalar diqqatni bir joyga to‘plashni, narsalarni farq qilish, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarining faolligini talab qiladi.

Didaktik o‘yin ba’zi bolalarning aqliy faoliyatidagi turli-tuman qiyinchiliklarni yengishda birdan-bir zarur vosita hisoblanadi.

Yakka tartibdagi didaktik o‘yinni tashkil qilish bilan tarbiyachi alohida munosabatlar uchun qulay sharoit yaratadi, aqliy faoliyatda orqada qolishning sabablarini aniqlaydi, ko‘p mashq qildirish bilan bunday bolalarning o‘sish darajasini oshiradi.

Didaktik o‘yinning mazmuni “Bolajon tayanch dasturida bayon qilingan va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- buyumlar, ularni nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to‘g‘risida bilimlar berish.
- mehnatning har-xil turlari va uning kishilar hayotidagi roli to‘g‘risidagi bilimlar

- tabiat voqyealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to'g'risidagi bilimlar
- dastlabki matematik tushunchalar: son-sanoq, kattalik, shakl, vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Didaktik o'yinlar, ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turlari bolalar ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlariga bo'yicha ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhining o'ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda didaktik o'yinlarning tutgan o'rniva vazifasi, mazmuni, o'tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan asosiy maqsad-bolalarni ranglarni bir-biridan farqlashga va nomini aytishga o'rgatish, har-xil o'lchamlarni (katta, kichik), shakllarni (sharcha, kubcha) bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o'stirishga yordam beradigan o'yinlar o'tkaziladi. Masalan, "juft kartochkalar", "Kattalar va kichiklar", "Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz", "Bu nimaning ovozi" didaktik o'yinchoqlar bilan yakka-yakka o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish, jamoa o'yinlari tashkil etish; narsalarni faqat rangiga qarab ajratib olish, katta-kichikligiga qarab ajratish; xalqachalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan ikki, to'rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlardan "Idish-tovoqlarimiz", "O'yinchoqlar" kabilarning tasvirini yig'ish; narsalarni farqlash va nomini to'g'ri aytishga o'rgatish va h.k. Musiqaviy-didaktik o'yinlarda esa musiqa ovozlarning ba'zi bir xususiyatlarini farq qilishga o'rgatish, qadam va yugurish ritmini ("Kim kelayotir", "Sichqonlar yugurishayapti"), ovoz va cholg'u asboblari tembrlarini ("Musiqaviy o'yinchoqlarni o'ylab top", "Ovozidan bilib ol") ajrata bilishga o'rgatish vazifalari ham hal etiladi. O'rta guruhda didaktik o'yinlar orqali bolalarda eshitish, ko'rish, sezish a'zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatilgan materiallarning xossalarini bilib olish, narsalarni tashqi ko'rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlariga ajratishni o'rgatish vazifalari amalga oshiriladi. Yana didaktik o'yin davomida bolalar o'rtaga qo'yilgan masalani hal etishda sabr-matонатli bo'lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-e'tiborlilikka

odatlantirib boriladi. Musiqaviy-didaktik o‘yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qilishga o‘rgatib boriladi. Katta guruhda didaktik o‘yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo‘yaydi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir-biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materialini seza bilish, narsalarning joylanishidagi o‘zgarishlarni) aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalash; biron hayvon, o‘simlik, transport ta’rif-tavsif qilib berilganda, ularning nomini topa olish malakasini o‘stirish, bolalarning umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlariga bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish, so‘z boyligini faollashtirish va to‘ldirish; qismlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar) yasash malakasini o‘stirish. Musiqaviy-didaktik o‘yinlar orqali tovushlarni bir-biridan farq qilishni o‘rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg‘u asboblari ovozing tembrini farq qilish (“Kim kuylayapti?”, “Shiqildoqli childirma”), ovozing diinamikasini ajrata olish (“Tez, sekin kuylaymiz”) uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida didaktik o‘yinlar hamma yosh guruhlaridagi kabi alohida o‘rin tutadi va bu guruhda didaktik o‘yinlar orqali quyidagi ta’lim-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o‘yinlarga qiziqish uyg‘otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tibor, ziyraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo‘lishda yordamlashuvchi o‘yinlarni, domino, mozaikaning har –xil turlarini, shashka, jumboq o‘yinlar, og‘zaki o‘yinlar (“Dengiz to‘lqinlanmoqda”, “Qora va oq”), ranglar va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashni o‘rgatadigan o‘yinlar o‘tkaziladi.

Didaktik o‘yinlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- 1.Narsa va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar.
- 2.Stol ustiga qo‘yib o‘ynaladigan o‘yinlar.
- 3.Og‘zaki didaktik o‘yinlar.

Didaktik o‘yinda bolalar har doim o‘zlarini o‘ynayotgandek his etishlari kerak. Narsalar bilan o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlardan tarbiyachi bolalarni narsalar,

ularning xususiyatlari va bir-birlaridan farq qiladigan belgilari bilan, ularni ushlashtirish usullari bilan tanishtirish vositasi sifatida foydalanadi.

Didaktik o‘yinlarga rahbarlik.

Bolalarning narsalar,ularning sifati to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlash uchun har xil o‘yinchoqlar,suratlar, uy-ro‘zg‘or buyumlaridan foydalaniladi.

O‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar. “Xaltachada nima bor?” o‘yining maqsadi o‘yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va bu o‘yinchoqlar to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlash,tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. “Bu nima?” o‘yinida bolalar qo‘g‘irchoqqa har xil narsalar va ularni ishlatilishi to‘g‘risida gapirib beradilar. Bunday o‘yin guruhda, bog‘cha maydonchasida, uxlash xonasida o‘tkazilishi mumkin. Didaktik o‘yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, fazoda tutgan o‘rni bilan ham tanishtiradi. Har bir buyum va o‘yinchoq o‘zining tashqi ko‘rinishiga ega bo‘lishi kerak, o‘yinda esa qo‘yilgan maqsad narsaning asosiy belgisini ajrata bilishga imkon tug‘dirishi lozim. Bunday talabga xalq o‘yinchoqlari o‘z shaklining aniqligi,rangining tiniqligi bilan ko‘proq javob bera oladi. Bolalarni o‘ylashga ,aqliy vazifalarni bajarishga undaydigan o‘yinlar ham katta ahamiyatga ega. Bolalarning rang to‘g‘risidagi tushunchalarini mustahkamlash va aniqlash uchun quyidagi o‘yinlar o‘tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to‘plash, “Dumaloqni dumalatish”, xalqachalarni ipga o‘tkazish “Shu rangdagi dumaloqni dumalat”, “Kimda mana bu rangdagi xalqacha bor”, “Kim mana bu rangdagi xaltachani topa oladi?” va h.k. Shakl, rang predmetning asosiy belgilaridandir. Shakl to‘g‘risidagi tushunchalarni “Xaltachada nima bor?”, “Nima o‘zgardi?”, “O‘yinchoqlar do‘koni”, “Qo‘g‘irchoqni kiyintiramiz”, “Bu nima?” va boshqa o‘yinlar orqali aniqlash va mustaxkamlash mumkin.

Qo‘g‘irchoq-bolalarning eng sevimli o‘yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar muassasasida didaktik jihozlangan qo‘g‘irchoq bo‘lishi kerak. Qo‘g‘irchoq jihozlariga kiyim, ichki kiyim, poyabzal, idish-tovoq, mebel, o‘yinchoqlar kiradi.

Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi, sifatlari, nimaga ishlatilishi bilan tanishtiribgina "Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz", "Qo'g'irchoqni mehmon qilamiz", "Qo'g'irchoqlar bayrami", "Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni", "Qo'g'irchoqni uxlatamiz".

O'yinlar topishmoqlar bilan qo'shib olib borilganda qiziqarli o'tadi. Masalan, "Qo'g'irchoqni uxlatamiz o'yinida qo'g'irchoqqa karavat tayyorlayotganda tarbiyachi "Uzun, yumshoq, yo'l-yo'l" (matrats), "Oq, toza to'rtburchak" (yastiq), "Paxtali, issiq" yoki "junli, issiq" (adyol) va boshqa topishmoqlarni aytish mumkin. Qo'g'irchoqning karavati tayyor bo'lgandan keyin qo'g'irchoqni yotqizayotib, "alla"aytadi. Mebellarning nimaga ishlatilishini, o'yinchoqlarning nomini mustahkamlash uchun "Qo'g'irchoqqa xona yasatamiz", "Qo'g'irchoqqa o'yinchoq sovg'a qilamiz" kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi, sifatlari, nimaga ishlatilishi bilan tanishtiribgina qolmay, muayyan predmetlar orqali ularni oddiy turlarga ajratishni o'rgatib boradi: ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar. Kastrylka, tarelka, choynak-idish-tovoq. O'yinlarni narsa va buyumlarni tasvirlovchi rasmlar orqali ham o'tkazish mumkin. Bularga "Bu narsa o'zi to'g'risida nima deydi?", "Kim birinchi bo'lib aytib beradi?" (bolani diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo'g'irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to'g'risida), "Kim biladi?", "Qaysinisi bir xil va qaysinisi har xil?" kabi o'yinlarni ko'rsatsa bo'ladi. Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash uchun "Hidiga qarab top", "Mazasiga qarab top", "Ushlab ko'rib top", "Kim nimani eshityapti?" kabi o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kichik yoshdagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmuni va g'oyasi jihatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkazib qolmay, so'zli didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qaerda qilingani, nima uchun kerakligi va hakazolar to'g'risidagi bilimi

aniqlanadi hamda mustahkamlanadi. Bunday o‘yinlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: “Nima nimadan yasalgan?”, “Guruh xonasiga sayohat”, “Ovoziga qarab top” va boshqalar.

Umumlashtirishga o‘rgatish bo‘yicha turlarga ajratishni o‘rgatuvchi o‘yinlar katta o‘rin egallaydi. “Qaysi fabrikada nima ishlar bajariladi?”, “Fabrikada nima ish qilinadi?”, “Dalada nima yetishtiriladi?”, “Kimga nima kerak ?” , “Kim nima bilan ishlaydi?”, “Yuramiz,yuramiz-to‘xtaymiz!”, “Bizning kun”, “Yil fasllari” va boshqalar. Bolalarni nutqini rivojlantirish uchun quyidagi o‘yinlarni o‘tkazish mumkin: “So‘z qo‘sh”, “Orkestr”, “Mana bu tovushga so‘z top”, “Mana bu so‘zlardan gap tuz”, “So‘zlardan hikoya tuz” va h.k. Yuqoridagi hamma o‘yinlar jamoa o‘yinlaridir. Bular asosida yana bir qancha o‘yinlar topish mumkin.

Didaktik o‘yinlarga rahbarlik qilish. Boshqa o‘yinlar singari, didaktik o‘yinlarga ham tarbiyachi rahbarlik qilishi lozim. Birinchi navbatda didaktik o‘yinni va unga kerakli materialni tanlash kerak.

Didaktik o‘yinlarga maxsus o‘rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan ma'lum joy olishi kerak. Didaktik o‘yinlarni mashg‘ulot bilan bog‘lab olib borishni yaxshilab o‘ylab amalga oshirish lozim. Bu o‘yinlar mashg‘ulot va o‘yin soatlarida o‘tkaziladi. Ularni butun gurux bolalari bilan, kichkina guruh va alohida bolalar bilan ham o‘tkazish mumkin.

O‘yinning mazmuni va undan kelib chiqadigan natija oldindan yaxshilab, aniq o‘ylab olinadi. O‘yinning g‘oyasi o‘yin harakatlari, qoidasi va o‘yinning borishi shunga bog‘liqdir. Bu o‘yindan bolalarga tovushlarni talaffuz qilishni mashq qildirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Har bir vazifa o‘yinga o‘zining yaxshi g‘oyasini singdiradi. Bolalarni o‘yin qoidasi bilan tanishtirish zarur Kichik yoshdagi bolalarga o‘yinning hamma qoidasi oldindan aytib o‘tirilmaydi. O‘yin davomida tarbiyachi qoidani harakatlar bilan bog‘lab olib boradi. Buning uchun u qoidani qanday tartibda tushuntirib berishni oldindan o‘ylab qo‘ygan bo‘lishi kerak. O‘yinning qoidasi uning asl mazmunini aniq ochib beradigan bo‘lishi kerak.

Kichkina bolalar o‘yinlarida hamma bolalarga umumiy bo‘lgan qoida beriladi. Katta bolalar o‘yinlarida esa o‘yin qatnashchilariga har xil qoidalar berilishi mumkin. Topishmoq aytadiganlar uchun bir xil qoida, topadiganlar uchun boshqa qoida; quvlaydiganlar uchun bir xil qoida, qochadiganlar uchun boshqa qoida va h.k. Bu qoidalarning hammasi birgalikda bolalarning o‘yindagi ahloqini tartibga solib turadi.

Didaktik o‘yinlarda majburiy qoidalar juda ko‘p uchraydi; navbat bilan harakat qilish, faqat so‘raganda javob berish, o‘rtog‘iga quloq solish, o‘ynaganda boshqalarga xalaqit bermaslik, qoidani bajarish, o‘z aybiga iqror bo‘lish va h.k.

Didaktik o‘yinni amalga oshirishda g‘oyaviylik prinsipi

Didaktik o‘yin – bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan ta‘lim berish metodidir. Xozirda tajribali pedagoglar bu o‘yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo‘rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Didaktik o‘yinni amalga oshirishda har doim g‘oyaviylik prinsipiga asoslanish lozim. Didaktik o‘yin tarbiyaning vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi kerak. O‘yinlar bolalarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini bilan uyg‘unlashtira olishi, bir-biriga ko‘maklashish, do‘stining muvaffaqiyatidan xursand bo‘lish kabi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O‘yinlar bolaning sofdillik, rostgo‘ylik kabi ijobiy xislatlarning shakllanishiga imkon beradi.

Didaktik o‘yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg‘ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu sababli, didaktik o‘yin bolalarning aqliy qobiliyatini, aqliy faoliyatlarni kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Shu bilan bir qatorda, didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrof to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishga o‘rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarini, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni tartibga soladi.

“Bu nima?” deb beriladigan savol 2,5 yoshdan keyin keskin kamayadi. Uning o‘rnini munosabat bildirishga undovchi savollar egallay boradi. Masalan, “Bu nima

ekan?”, “Qanday ishlaydi?” Bunday savollar suhbat “mavzusi”ga suhbatdoshining diqqatini tortish va uning diqqatini shu mavzuda ushlab turish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyachi o‘z savollari bilan bolani faqat yangi narsalar haqida so‘rash shart emasligi, o‘zi bilgan narsalar haqida munosabat bildirib turishi kerakligini o‘rgata boradi. Ushbu zaruriyat narsa va hodisalarning yangi qirralariga e’tiborni qaratishga olib keladi. Bolada kuzatuvchanlik rivojlana boshlaydi. Bu esa olamni bilishning muhim jihati sanaladi. O‘zi bilgan narsa haqida yangi mazmunda so‘rash qobiliyati shakllanmasa, dialogda nuqul yangi narsalar to‘g‘risida gapirishning iloji bo‘lmay qoladi. (Har gal avval yangi narsalar bilan tanishish, keyin ular haqida so‘z ochish dialogning ravon kechishiga xalaqit beradi.) Bola o‘z suhbatdoshining nimalarni bilishini hisobga olishga qodir bo‘la boshlagan davrdan e’tiboran avval tanish narsani aytib, keyin uning yangi qirrasiga o‘tishi mumkin bo‘ladi.

Odatda, bolaning o‘zida ichki intilish sababi bilan qalqib chiqadigan bilish istagi unda savol bilan kimgadir murojaat qilish tashabbusini uyg‘otadi. Buni ichki ehtiyoj deb atash ham mumkin.

Boladagi yuqorida tavsif etilgan xususiyatlar sensitiv davrga xosdir. 5 yoshgacha bo‘lgan davr sensitiv davr sanaladi. Shundan so‘ng nutqning o‘sish chizig‘i tik ko‘tarilishdan to‘xtab, qiyalab ketadi. Shubhasiz, maktabgacha yoshda bu davr yaqqol bo‘lmasa-da, 6-7 yoshda ham davom etadi. Umuman olganda, 2 yoshdan 5-6 yoshgacha bo‘lgan davrda bolalar tilni (xoh chet tilni bo‘lsin) ta’lim to‘g‘ri tashkil etilgan sharoitlarda osonlik bilan o‘rganadilar.

Mashg‘ulotlar ko‘rsatmalilik asosida tashkil etilsa, qiziqarli uyushtirilsa, bolalar bu mashg‘ulotlarga, ayniqsa, tarbiyachining aytayotgan gaplarini tushunish, savol berish, javob qaytarishga maroqli o‘yin deb qaraydilar. O‘yin har bir mashg‘ulotning jonli va mazmunli o‘tishini ta’minlagan holda ixtiyorsiz eslab qolishni quvvatlab turadi.

O‘yin bolaning nutq o‘stirish jarayonini faoliyatga yaqinlashtiradi. Bu masalada bizga S.L.Rubinshteyn aytgan fikr ma’qul keladi. Olimning ta’kidlashicha, insonning ruhiy, ma’naviy rivojlanishi uning nazariy va amaliy ishlarida, faoliyatida

namoyon bo‘libgina qolmay, balki sodir bo‘ladi. Mustaqil ravishda savol berish, shu tarzda javob qaytarishgina bolalarning ona tilidagi nutqiy faoliyatini rivojlantiradi.

Dasturda bolalarni turli ta'limiy o‘yinlarni (loto, mozaika va b.) o‘ynashga o‘rgatishda davom etish, o‘yinlarni tashkil etish, yetakchilik rolini bajarish malakasini rivojlantirish, o‘z harakatlarini yetakchi va boshqa o‘yin ishtirokchilari harakatlari bilan muvofiqlashtirishga o‘rgatish, o‘yinda topqirlik, qo‘yilgan vazifani mustaqil bajarish malakasini rivojlantirish talab etiladi.

Bolalarni ayrim ta'limiy o‘yinlar (“Shumelki”, “Shurshalki”) yaratishga jalb qilishga, sensor qobiliyatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga e'tibor qaratiladi.

O‘yinda maktabga tayyorgarlik uchun zarur bo‘lgan sifatlarning, ya'ni o‘zini tutishdagi erkinlik, assotsiativ obrazli va mantiqiy fikrlash, xayoliy tasavvur, bilish faolligi kabi sifatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga yordam berish taqozo etiladi.

Savol-javob tarzida o‘tadigan o‘yin turlari ko‘p, faqat ulardan o‘rinli foydalanish lozim. Tarbiyachi o‘yinlarni shunday tashkil etishi kerakki, bolalar bir-ikki dialogik luqma yoki savol-javob bilan kifoyalanib qolmasliklari zarur. Masalan, bolalarga dastlabki gap qanday bo‘lishi kerakligi aytiladi: “Men uy qurmoqchiman”, “Men javon yasamoqchiman” kabi. Guruh ikkiga bo‘linadi. Birinchi guruh ikkinchi guruhga: “Biz uy qurmoqchimiz. Kim uy qura oladi?” - deydi. Ikkinchi guruh: “Uy qurish uchun ko‘p narsalar kerak. Nimalaringiz bor?” – deb so‘raydi. Birinchi guruh bolalari: “G‘ishtlarimiz bor. Yana nimalar kerak bo‘ladi?” – deb so‘rashadi. Ikkinchi guruh bolalari: “Bir mashina tuproq kerak”. “Suv kerak”. “Bir mashina sement kerak”. Birinchi guruh bolalari: “Bizda bir mashina taxta ham bor”. “Bizda bir yashik mix bor” va hokazo. Ko‘p savol bergan bola fant bilan rag‘batlantirib boriladi.

Umuman, ko‘pgina metodistlar mashg‘ulotlarni bolalarning harakat erkinligida: yurib turgan holatida, xohlagan vaqtda o‘tirishi mumkin bo‘lgan bir vaziyatda o‘tkazish kerak, degan fikrni aytadilarki, 20-30 daqiqa qimirlamay bir joyda o‘tirish yoki turish ular uchun og‘irlik qiladi. Kichkintoylarning fikrlashi mustaqil bo‘la borishi kerak.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, soʻzlar va grammatik strukturalarni eslab qolishning ma'lum vaqt chegarasi bor. Sarapkina kichik yoshdagi bolalarning tezda charchab qolishlarini kuzatgan, ayni paytda savollarga joʻrlukda javob qaytarish kichkintoylar diqqatini safarbar etishini aniqlagan.

Bolalarda taajjub, hayajon, ehtiros kabi intellektual hislarning paydo boʻlishi tafakkurning oʻsishidan dalolat beradi. Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi koʻrgazmali-obrazli tafakkur deb ataladi.

Masalan, biror hayvon yoki parrandaning nomini topish oʻyini oʻtkaziladi. Bolalarga: "Koʻzingizni yuming", - deyiladi. Biror narsa ustiga sochiq yoki doka tashlanadi. "Koʻzingizni oching", - deyilgandan keyin bolalar qoʻl koʻtarib soʻray boshlaydilar: Uchadimi? Yuradimi? Dumi bormi? Tishlari kattami? va hokazo. Narsani yashirgan bola "Yoʻq" yoki "Ha" deb turadi. Shu tariqa jumboq yechiladi. Bolalardan biri tegishli soʻzni aytadi. Shu tariqa hayvonlar va qushlar bilan bogʻliq mavzuga doir soʻzlar, savol hamda javoblarda ishlatiladigan grammatik vositalar faollashtiriladi

Oʻyin buyumlarga qaramay savollar berish yoki javob qaytarishga undovchi dastlabki qadamdir. Bolalarning tasavvurlariga tayanish uchun tushuncha anglatishiga koʻra soʻzlarning doimiy juftligidan foydalangan ma'qul. Masalan: Sut ichdi. Chiroqni yoqdi.

Oʻyin paytida fikrlash jarayonining oʻzi tezroq, faolroq kechadi, chunki oʻyin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos faoliyat turi hisoblanadi. Oʻyin chogʻida bola aqliy ish bilan bogʻliq qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib oʻtadi.

Bolalar bilan oʻtkaziladigan soʻzli didaktik oʻyinlar

Bolalarning yetarli soʻz boyligi toʻplanganidan, ular atrof-muhit haqida ma'lum darajada bilimga ega boʻlganlaridan soʻng didaktik oʻyinlar oʻtkazilsa maqsadga muvofiq va qiziqarli boʻladi. Gapirib oʻynaladigan oʻyinlar koʻp bolalar bilan oʻtkazilganda, bitta savol bir necha marta takrorlanishi, javoblar esa har xil boʻlishi mumkin. Bu talab oʻyinning asosiy qoidasini tashkil qiladi. Masalan, "Shifokor

nima qiladi?” degan savolga, “Kasallarni davolaydi”, “Dori yozib beradi”, “Ukol qiladi”, “Eshitib ko‘radi”, “Operatsiya qiladi” kabi javoblar qaytarilishi mumkin.

Bolalar bilan o‘tkaziladigan so‘zli didaktik o‘yinlarda foydalani-ladigan savollar tushunarli va tanish narsalar yuzasidan berilishi kerak. O‘yin jarayonida bolalarning savollarga qaytargan javoblari qisqa, ketma-ket va qo‘shimcha savolsiz bo‘lishi lozim. O‘yin paytida mazkur qoidaga amal qilinmasa, uning o‘yinlik xususiyati yo‘qoladi, oddiy suhbatga aylanib qoladi. Mana shuning uchun ham bolalarga beriladigan savollar oldindan puxta o‘ylab tuzilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘yin shaklida o‘tkaziladigan mashqlar bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi, qiziqishini oshiradi. Natijada ular takrorlash zarur bo‘lgan so‘z yoki harakatni o‘zlarini qiynamay, majbur qilmay osonlik bilan qaytaradilar.

Didaktik o‘yinlar bolalarning har tomonlama chuqur va keng bilim olishlarida, nutq o‘stirishda keng foydalaniladigan ta'limiy vositalardan biri hisoblanadi. Bunday o‘yinning asosiy mohiyati shundaki, kattalar bolalarga biror aqliy vazifani o‘yin shaklida bajarishni topshiradilar. Didaktik o‘yin xuddi boshqa o‘yinlar kabi xushchaqchaqlik tuyg‘usini uyg‘otishning ta'sirchan qurolidir.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: intellektual, harakatli, aralash o‘yinlar.

O‘yin strukturasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: maqsad qo‘yish, rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish, natijalar tahlili.

Bola muvaffaqiyat qozonishga intiladi, faol harakat qiladi. Uning tashabbuskorligi ortib, o‘yin davomida ko‘tarinki ruh bilan ish tutadi. Bu intilish tufayli vazifani bajara olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma'lum darajada zo‘r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi. Bolalar fahm-farosatlari, topog‘onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi barcha bolalarni faoliyatida rivojlantiruvchi muhit, rivojlantiruvchi o‘yin, voqyeaband o‘yinlar asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar atrofda ko‘rgan bilganlarini, o‘zidan kattalardan o‘rgangan hatti harakatlarni o‘yin orqali aks

ettirishga harakat qiladilar. O‘yin bolalar uchun oddiy bir ermak emas, balki ular o‘yin vaqtida atrofdagi hayot bilan turli voqyealar bilan tanishadilar, o‘ziga hos xususiyatlari ya'ni yaxshilik yomonlikni bir biridan farqlashni bilib oladilar. Bolalar ko‘rgan narsalarini har-hil hatti harakatlar bilan o‘zlaricha talqin qiladilar.

O‘yin faoliyatida bolalar harakatlari faollashadi ular yuguradilar, sakraydilar, turli muskullari, sezgi organlari, barmaq harakatlari mustahkamlanib, sog‘lom yanada baquvvat organizmning hayot faolligi oshadi. O‘yin vaqtida bolalar tengdoshlari bilan muloqotga kiradilar, o‘yin burchagidagi o‘yinchoqlar bilan gaplashadilar, birgalikda jamoa bo‘lib o‘ynaganlarida bir birlarini fikrlarini muhokama qiladilar. Bu jarayonda bolalarni nutqi, fikrlashi mustahkamlanib xotirasining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bunda so‘z boyligini oshirish, gap tuzish malakalarini izchil rivojlantirish, bog‘lanishli nutqini shakllantirish, samimiylilik bilan ta'sirchan gapirish, muomala madaniyatini egallashni ta'minlovchi ish usullarini qo‘llash taqozo etiladi. O‘yin ana shu maqsadlarga erishish uchun xizmat qilib, bolalarning nutqiy faolligi orqali ta'lim-tarbiyaning qudratli omili bo‘lib maydonga chiqadi. O‘yin faoliyati ijod uchun imkon beradi, his-tuyg‘ularni kuchaytiradi.

Mashg‘ulot jarayonida o‘yin shakli, o‘yin usullari va vazifalari orqali tashkillanadi. Tarbiyachi bu borada tashkilotchilikni qo‘lga olishi zarur elementlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, didaktik o‘yin orqali bolalarni ijtimoiy hayotdagi muloqotga o‘rgatiladi, savol-javolarning intonatsion xususiyatlarini egallash imkoniyatlarini beradi. Mashg‘ulotlarda bolalarning o‘yin faoliyat turlarini tez-tez almashtirib turish, ularning toliqishini olishda zo‘r didaktik vositadir. Mashg‘ulot davomida turli didaktik o‘yinlardan o‘rinli foydalanish bolalarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Bolalar faolligini oshiradi, so‘z boyligi ortadi, taqdim etilayotgan bilimlarni yuqori samara bilan egallanishiga imkon yaratadi. O‘yin bolalarning zerikishiga sabab bo‘lmasligi lozim. Buning uchun o‘yinni rivojlantirish, takomillashtirish hamda o‘yinga qo‘yiladigan talablar mazmunini o‘zgartirib turish

kerak. O‘yin vaziyatini tanlash, o‘yinga rahbarlik qilayotgan tarbiyachining mahorati va qiziqishiga bog‘liqdir. Bola o‘ynar ekan, u nimanidir o‘rganishi haqida o‘ylab o‘tirmaydi, lekin o‘yin jarayonida nimanidir o‘rganadi. Didaktik o‘yinlar bolaning ma'naviy va ahloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo‘lib kamol topishida tarbiyaviy ta'sir qudratiga ega. O‘yin timsolida bolalar jamoa bo‘lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, ishlashga va mustaqillikka o‘rganadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Bolajon» tayanch dasturi. T.:2010.
2. L. Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o‘ynaladigan o‘yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2005 .
3. M.R. Mingalimova. Bolalarni o‘yin faoliyati orqali maktab ta'limiga tayyorlash. / “Maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzuidagi ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami/. T.: 2012 .
4. E.G‘oziev. Tafakkur psixologiyasi. T.: O‘qituvchi, 1990.
5. D.Abdurazzoqova. «Ham o‘naymiz, ham o‘ylaymiz» T:2008